


Misher Navoiy



hayotl la yodi



FF0000016561

83,3(502)

178



Boqijon To‘xliyev,
Dilfuza To‘xliyeva

ALISHER NAVOIY

hayoti va ijodi

(*albom*)

14-7644/39



Toshkent – 2013



UO'K: 821.512.133(092) Navoiy

KBK 74.200.58+3(5Ë)1

N14

Alisher Navoiy hayoti va ijodi: albom / Tuzuvchilar: B. To‘xliyev, D.To‘xliyeva; mas’ul muharrir Y.Is’hoqov. — T.: Bayoz, 2013. — 56 b.

1. To‘xliyev, Boqijon.

UO'K: 821.512.133(092) Navoiy

KBK 74.200.58+3(5Ë)1

ISBN 978-9943-4142-4-2

Ushbu albom — qo‘llanmada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi ixcham tarzda aks ettirilgan. U umumiy o‘rtta ta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining o‘quvchilari, talabalar, o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan. Undan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan qiziquvchi barcha muxlislar ham foydalanishlari mumkin.

Qo‘llanma Xalq ta’limi vazirligi qoshidagi Respublika ta’lim markazi tomonidan amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar:

Filologiya fanlari doktori, professor B.To‘xliyev,
Nizomiy nomidagi TDPU magistranti D.To‘xliyeva

Mas’ul muharrir: Filologiya fanlari nomzodi Y.Is’hoqov

Taqrizchilar: Filologiya fanlari doktori, professor N.Jabborov
Filologiya fanlari doktori, professor H.Homidov

Muharrir: Behbud Botirov, Dizayner: Bahodir To‘xliyev,

Texnik muharrir: Nodir Rahmonov

Bosishga ruxsat etildi: 25.07.2013. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Times garniturasi, Ofset bosma usuli. Shartli bosma tabog‘i: 7,0.

Adadi 2000. Buyurtma № 25.

«BAYOZ» nashriyotida nashrga tayyorlandi.

«BAYOZ» MCHJ matbaa korxonasida chop etildi.

100100, Toshkent. Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy.

ISBN 978-9943-4142-4-2

© To‘xliyev B., To‘xliyeva D., 2013.

© «Bayoz» nashriyoti, 2013.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Islom Karimov

Alisher Navoiy

Alisher Navoiy nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotidagi eng yorqin siymolardan biridir. Bu buyuk bobokalonimiz qoldirgan ulkan merosda olam va odamga bog'liq bo'lgan hodisalar favqulodda teran nigoh bilan tahlil etilgan. Ularda inson mohiyati, uning ijtimoiy vazifasi, burch va mas'uliyatlari, imkoniyat va ojizliklari yuksak badiiy ohanglarda tasvirlangan. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandası, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir».

Ana shu buyuk mutafakkirning hayoti va ijodi ta'limning deyarli barcha bosqichlarida o'r ganiladi. Mazkur albom shu jarayonlarda amaliy yordam beradi, degan umidda tuzilgan. Kitobda Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish uchun muhim bo'lgan ko'rgazmali materiallarning bir qismini jamlashga harakat qilindi. Uni tuzishda yirik Navoiyshunos olimlar H.Sulaymonov, F.Sulaymonovalar tomonidan nashr etilgan albomlardan, A.Abdullayev, Ch.Axmarov, O.Boboyev, T.Sa'dullayev, P.Shobaratov, N.Qo'ziboyev, A.Kriakadi, N.Shin singari mo'yqalam ustalari ijodidan, shuningdek, ayrim internet materiallaridan foydalanildi.

Albomni tuzishda O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining xodimlari o'z maslahatlari hamda fonddag'i materiallar bilan katta amaliy yordam berishdi. Buning uchun ularga minnatdorchilik bildiramiz.

Albom materiallari umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, shuningdek, kasb-hunar kollejlarida olib boriladigan adabiyot darslari samaradorligi uchun yordam berishiga shubha yo'q. Albom haqidagi fikr-mulohazalaringizni Nizomiy nomidagi TDPU «O'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi» kafedrasiga bildirishingiz mumkin.

Manzilimiz: Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.

Elektron pochta: bokijontukhliev@inbox.ru yoki bayoz2010@yandex.ru

* Fardlar uchun lug'at kitobning oxirida keltirilgan

O'zungga yuklama anduh tog'in, istab qut.



*O'sha tilda undan ko'p va undan yaxshiroq hech kim she'r aytgan
va nazm gavharlarini tizgan emas.*

Abdurahmon Jomiy

*Alisherbek naziri yo'q kishi erdi, turkiy til bila to she'r aytibdurlar,
hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas.*

Zahiriddin Muhammad Bobur

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,



Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay.

Zahiriddin Muhammad Bobur

Erur so'z mulkining kishvarsitoni,
Qayu kishvarsitoni xisravnishoni,
Dema xisravnishonkim, qahramoni,
Erur gar chin desang sohibqironi.

Husayn Boyqaro

Navoiyning asarlari til uchun juda boy bir xazinadir. Ularni yolg'iz til nuqtayi nazaridan tekshirish, ulardagi so'zlarni yig'ib izoh qilishning o'zi juda katta ilmiy xizmat bo'lar edi.

Abdurauf Fitrat

Navoiy haqiqatan ham o'zbek adabiy tilining va o'zbek adabiyotining mustahkam poydevorini qo'ygan, dohiy-adib xususiyatlarini o'zida jamlab olgan bir siymo edi. Fors-tojik klassik adabiyotida bir guruh ulug' shoirlar bajarib ketgan vazifani tarix deyarli yakka Navoiy zimmasiga yukladi. U bu yukni sharaf bilan ko'tarib, manzilgacha yetkazgan mutafakkir edi.

Maqsud Shayxzoda

Sharq adabiyotida Bobosulton Navoiy, Mullo Shamsiddin Muhammad Navoiy, Mir Muhammad Sharif Navoiy, Baqoiy-Navoiy kabi Navoiylar o'tgan, biroq har qaysisi o'zicha Navoiy bo'lgan va birortasi ham Alisher Navoiy bo'lolmagan.

Vohid Abdullayev

«Mabodo Navoiy boshqa asar yozmasdan faqat «Xazoyin ul-ma'oniy»ni, hatto uning tarkibidagi bitta devon — «G'aroyib us-sig'ar» yoki «Navodir ush-shabob», yoxud «Favoyid ul-kibar»ni yaratganda ham adabiyotimiz tarixida eng ulug' shoirlarimizdan biri bo'lib qola berar edi».

Abduqodir Hayitmetov

ALISHER NAVOIYNING HAYOT SANALARI

1441-yil 9-fevral – Alisher Navoiy Hirot shahrida G'iyosiddin Kichkina oilasida dunyoga keldi.

1447-yil – Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo vafot etdi, Alisherlar oilasi Iroqqa ko'chadi. Yosh Alisher Taft shahrida mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi.

1451-yil – Oila Hirot shahriga qaytib keladi.

1452-yil – Xuroson taxtiga Abulqosim Bobur keladi. Alisherning otasi Sabzavor shahriga hokim qilib tayinlanadi.

1453-yil – Alisherning otasi vafot etadi.

1456-yil – Alisher Navoiy Husayn Boyqaro bilan birga Abulqosim Bobur xizmatida Mashhadga keladi.

1457-yil – Abulqosim Bobur Mirzo vafot etadi. Alisher Mashhadda o'qishni davom ettiradi.

1464-yil – Navoiy Hirotga qaytadi. Bu paytda mamlakatni Abu Said Mirzo boshqarar edi.

1465-1466-yillar – Muxlislari tomonidan shoirning dastlabki devoni tuziladi.

1468-yil oxiri – Abu Said Mirzo jangda halok bo'ladi.

1469-yil boshi – Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaydi. Navoiy shu yilning aprel oyida Samarcand shahridan qaytib keladi va mashhur «Hiloliya» qasidasini yozadi.

1469-1472-yillar – Navoiy saroyda muhrdor lavozimida faoliyat ko'rsatadi.

1472-1476-yillar – Navoiy saroyda vazir lavozimida ishlaydi. «Badoye ul-bidoya» («Badiylik ibtidosi») devoni tuziladi.

1476-1483-yillar – Ikkinci devon – «Navodir un-nihoya» («Nihoyasiz nodirliklar») tuziladi.

1481-1482-yillar — «Vaqfiya» asari yoziladi.

1483-1485-yillar — Mashhur «Xamsa» dostonlari yaratiladi.

1485-yil — «Nazm ul-javohir» («Gavharlar tizmasi») asari yozildi.

1487-yil — Astrobod shahriga hokim etib tayinlanadi.

1488-yil — «Tarixi muluki Ajam», «Siroj ul-muslimin» («Musulmonlik nuri») kitoblari yoziladi.

1489-yil — Astrobod hokimligidan ozod etilib Hirotga qaytadi. Navoiyning do'sti va ustozи Said Hasan Ardasher vafot etadi. Adib «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» asarini yozadi.

1491-yil — «Risolayi muammo» (ikkinchi nomi «Mufradot») asari yoziladi.

1492-yil — Navoiyning qadrdon do'sti va ustozи Abdurahmon Jomiy vafot etadi.

1492-1494-yillar — «Xamsat ul-mutahayyirin» asari yoziladi.

1493-yil — Navoiyning qadrdon do'sti va ustozи Pahlavon Muhammad vafot etadi. Adib «Holoti Pahlavon Muhammad» asarini yozadi.

1492-1498-yillar — To'rt devondan iborat bo'lgan «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi») tuziladi.

1495-1496-yillar — «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») yozildi.

1497-yil — Husayn Boyqaroning nevarasi Mo'min Mirzo qatl etiladi.

1498-yil — «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar») tazkirasi tuziladi. «Lison ut-tayr» («Qush tili») dostoni yoziladi.

1498-1499-yillar — «Munshaot» («Xatlar») tuziladi.

1500-yil — «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asari yoziladi.

1501-yil 3-yanvar — Buyuk o'zbek adibi Alisher Navoiy vafot etadi.

Ranjkash bo'lkim, chu tortar chug'z vayron ichra ranj,



Navoiy Hiratda

Chu mazkur etib ahli donish hir ot,
Pisand aylamay xotiri juz Hirot.

Chu bu lafzg'a iltifot aylabon,
Hamul shahr otin Hirot aylabon.

Hirot o'ldi alqobi Iskandariy,
Dedilar avom oni lekin — Hiriy.

Chu to'rtunch iqlim edi mavqeyi,
Bas o'ldi quyosh sohibi toleyi.

Kavokibgakim, yeti taqsim erur,
Jahon mulki ham yeti iqlim erur.

Angakim vasat mehri raxshon kelib,
Munga lek mulki Xuroson kelib.

Xuroson badandur, Hiriy jon anga,
Hiriy jon, badandur Xuroson anga.

Alo, toki sipehr uzra bo'lg'ay mehr,
Yoruq mehr nuridin o'lg'ay sipehr.

Anga bo'lmasun mehr yanglig' zavol,
Sipehr etmasun xalqin oshuftahol.

(«*Saddi Iskandariy»dagi Hirot madhidan)*

Lug'at

- Juz** — boshqa, o'zga
alqob — laqablar, nomlar (birligi laqab)
kavokib — (birligi kavkab), yulduzlar
vasat — o'rta, o'rtalik
alo — ogoh bo'l, tingla ma'nosidagi undov so'z
sipehr — osmon, falak
mehr — quyosh
oshuftahol — parision hol

El ichra, ey hasud, seni qildi haq zatil



Yosh Alisherning Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuvi



Navoiy va Boyqaro maktabda

NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO

Aning nazmi vasfida til qosir va bayon ojiz turur.

Husayn Boyqaro

Navoiy mashhur «Hiloliya» qasidasidan boshlab butun asarlarida Husayn Boyqaro haqida so‘z yuritadi, uning tomonidan amalga oshirilgan muhim tadbirlarni olqishlaydi. Boyqaro Navoiyning ta’siri bilan qator ilg‘or siyosiy, madaniy tadbirlarni hayotga tatbiq etadi, o‘zbek xalqining tarixida progressiv rol o‘ynagan, ayni zamonda, davrining ko‘zga ko‘ringan shoiri bo‘lgandir.


Hamid Arasli

«Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxisis Hiriy shahri mamlu edi. Har kishiningkim, bir ishga mashg‘ullug‘i bor erdi, himmati va g‘arazi (niyati) ul erdikim, ul ishni kamolg‘a yeturgay».

Zahiriddin Muhammad Bobur



Navoiy Husayn Boyqaro huzurida



Alisher va Husayn Abulqosim Bobur huzurida

Sulton Abulqosim Bobur (vaf. 1457, Mashhad) — Te muriy hukmdorlardan. 1447 — 1457-yillarda Xurosonda shohlik qilgan. U inadaniyatimiz tarixida chuqur iz qoldirgan shoir, xattot, adabiyot va san'at ahli homiysi, «Shohnomayi Boysung‘uriy» nomi bilan mashhur bo‘lgan go‘zal kitobat tashabbuskori va ishtirokchisi Boysung‘ur Mirzoning o‘g‘li edi. Shohrux vafotidan keyin Te muriy shahzodalarining o‘zaro kurashlari avj olib ketadi. Ko‘plab ahli donishlar poytaxtni tashlab ketishadi. Abulqosim Bobur taxtga o‘tirgach, el qaytib kela boshlaydi. Ular orasida Alisherlarning oilasi ham bor edi. Navoiy va Husayn Boyqaro yoshliklarida ana shu Abulqosim Boburning xizmatiga kirgan edilar.

Roviyalar shunday rivoyat qiladilar:

Husayn Boyqaro urush harakatlari bilan bog‘liq bo‘lgan safarda bo‘lgan chog‘da uzoq muddatdan beri notob bo‘lgan suyukli rafiqasi Sarvgul vafot etadi. Bunday noxush xabarni yetkazish uchun esa saroy a‘yonlaridan hech kim jur‘at eta olmaydi. Zero, hukmdor ketish oldidan: “Kimdakim menga nomuborak xabar yetkazadigan bo‘lsa, uning boshi o‘limda, moli — talonda” — deb aytib ketgan edi. Bu paytda Navoiy ham saroydan

chetlashtirilgan edi. Saroy a'yonlari boshqa yo'l topolmasdan Navoiyga murojaat etishadi. Shunda Navoiy qo'liga qalamni olib qog'ozga bir misra she'r yozadi:

Sarvning soyasida so'ldi gul, netmoq kerak?


Chopar xatni shohga eltadi. U hodisadan xabardor bo'ladi. Ammo urush maydonini tashlab ketish imkonni bo'lmagani uchun, qo'liga qalam olib, qog'ozga yana bir misrani qo'shib qo'yadi:

Sarvdin tobut yasab, guldan kafan etmoq kerak.

Shunday qilib, ushbu rivoyat bizga tarixdagi nihoyatda go'zal bitta baytni yetkazib kelgan:

Sarvning soyasida so'ldi gul, netmoq kerak?

Sarvdin tobut yasab, guldan kafan etmoq kerak.



Navoiy chizgan zanjirband sher

Besh asrkim nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher,
Te mur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher (*Abdulla Oripov*).

**Navoiy asarlarining alifbo tartibidagi
ixcham ro'yxati**

«Arba'in»
«Badoye' ul-bidoya»
«Badoye' ul-vasat» («Xazoyin ul-ma'oniy»)
«Devoni Foniy»
«Favoyid ul-kibar» («Xazoyin ul-ma'oniy»)
«Farhod va Shirin» («Xamsa»)
«Hayrat ul-abror» («Xamsa»)
«Holoti Pahlavon Muhammad»
«Holoti Sayyid Hasan Ardasher»
«Layli va Majnun» («Xamsa»)
«Lison ut-tayr»
«Mahbub ul-qulub»
«Majolis un-nafois»
«Mezon ul-avzon»
«Mufradot»
«Muhokamat ul-lug'atayn»
«Munojot»
«Munshaot»
«Nasoyim ul-muhabbat»
«Navodir un-nihoya»
«Navodir ush-shabob» («Xazoyin ul-ma'oniy»)
«Nazm ul-javohir»
«Qasidalar»
«Risolayi tiyr andoxtan»
«Sab'ayi sayyor» («Xamsa»).
«Saddi Iskandariy» («Xamsa»)
«Siroj ul-muslimin»
«Tarixi anbiyo va hukamo»
«Tarixi muluki Ajam»
«Vaqfiya»
«Xamsat ul-mutahayyirin»
«G'aroyib us-sig'ar» («Xazoyin ul-ma'oniy»)

NAVOIY LIRIKASIDAGI ASOSIY JANRLAR

G'azal

Mustazod

Muxammas

Musaddas

Musamman

Tarji'band

Tarkiband

Masnaviy

Qasida

Soqiynama

Qit'a

Ruboiy


Muammo

Lug'z

Tuyuq

Fard

Elni xor aylagan tama' bilgil,



Hirotdagi yangi ta'mirlangan maqbara



Navoiy «Xamsa»siga ishlangan gilam. Buxoro, 1969-yil.



Alisher Navoiyga Moskvada o'rnatilgan haykal

Ko 'ngulga futur o 'lmayin, roz ochilmas,



L.Abdullayev chizgan Navoiy portreti

Kecha kelgumdur debon...

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtim-u chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimg'a-yu ul sho'xi badxo' kelmadi.

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro'zgorimdek ham o'lg'anda qorong'u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.

Ko'zlariningdin necha su kelgay, deb o'lturmang meni,
Kim bari qon erdi kelgan, bu kecha su kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo'qsa kim qo'ydi qadam
Yo'lg'akim, avval qadam ma'shuqi o'tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

Lug'at

badxo' – badfe'l, qilig'i yomon

devonavor – devonalarcha, devonalar kabi

oraz – yuz

ro'zgor – turmush, tirikchilik; davr, zamon

o'tru – qarshi, muqobil, ro'para

Navoiy va Pahlavon Muhammad

Qazoro, bir kunkim, sahari faqir bu she'mi aytib erdikim, matlayi budurkim:

Har qayon boqsam, yuzumga ul quyoshdin nur'erur,

Har sori qilsam nazar, ul oy manga manzur erur.

Va bu she'r yetti bayt erdi va musavvada (qoralama) qilib jaybimg'a (kiyimning kissasi yoki ichki qismi) solib erdim va hanuz kishiga o'qumaydur erdim va ko'rsatmaydur erdim.

Pahlavon iltifot yuzidan ma'xud (odatdag'i) dasturi bila egnimni tutar erdi, muqaddima bunyod qildikim:

— Seni bu kun derlarkim turkcha she'mi yaxshi aytursen va turkcha nazm aytur eldin eshitib, bizga bu so'zni musallam (e'tirozsiz) tutarlar. Bizning bir savolimiz bor.

— Javob beray, siz bori savolingizni aytинг.

Dedi: — Savolimiz budurkim, turkiygo'y shuarodin ulcha she'rlarni ro'zgor sahfasida sabtdur (yozilgan), qaysi yaxshiroq aytibdurlar? Va sening aqidang aning yaxshi aytmoqig'a borur, sen begonur (yoqtirur)sen?

Faqir dedim:

— Borcha yaxshi aytibdurlar, men begonurmen.

Pahlavon dedi:

— Sen takalluf (hurmat) va kasri nafs (kamtarlik)ni qo'y, voqe' yuzidin so'z aytki, buki: borini begonurmen dersen, borcha xud birdek emas, albatta, tafovut bor.

Faqir ayttimkim:

— Mavlono Lutfiy holo musallam (tan olingan)durlar va bu qavmning ustodi va malik ul-kalomidiur.

Dedi: — Nechuk Sayid Nasimi demading?

Faqir dedim:

— Xotirg'a kelmadи va bar taqdir kelmoq, Sayid Nasimiyning nazmi o'zga rang tushubdur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur. Bu savolda sening g'arazing majoz tariqida aytur el erdi.

Pahlavon e'tiroz yuzidin kinoyatomuz dediki:

— Ravo bo'lg'ayki, Sayid Nasimi borida Lutfiy nazmini pisand qilg'aysen va hol ulkim, Sayid Nasimiyning nazmi zohir yuzidin haqiqat tariqig'a va yuqori bitgan baytni o'qudikim, faqir bu sahar aytib erdim. Chun matla'ni

o'qudi, o'zga abyotin ham mutaoqib (ketma-ket) bayon qildi va taxallusikim, bu nav' voqe' bo'lubturkim:

Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko'rsa ranj,

Yo'q ajab, nevchunki, xom etgan kishi ranjur erur.

"Navoiy"ni "Nasimiy"ga tag'yir berib (o'zgartirib) o'qudi va filvoqe' (haqiqatda) bu baytda Navoiy lafzidin Nasimiy lafzi munosibroqdur va faqir mutaajjib bo'ldum. Ohistroq ilgimni jaybimg'a elttim va mulohaza qildim: o'zum bitib jaybimg'a solg'on musavvada mavjud erdi, hayrat-u taajjubim ortti. Va Pahlavon hamul aytgan so'zni ioda qiladur erdi va ul she'rning abyotin mukarrar o'qur erdi. Va bu faqir betahammul (chidamsiz) bo'lub so'rdumkim, ul ish kayfiyatini ma'lum qilg'aymen. Ul o'zin yiroq tutti va so'zida rusux (barqarorlik) ko'prak zohir qildi. Faqir mubolag'a qilg'on soyi Pahlavon ham mubolag'a ko'rguzdi. Zarurat yuzidin so'rdumki:

— Bu she'rni qachon yod qilib tutub erding?

Dedi: — O'n ikki yil bo'lg'ayki, Bobur mirzoning majlisida bu she'r o'tar erdi, menga bag'oyat xush keldi, bitib olib yod tuttum.

Bori har hol bila bukun o'tti, ul takyasig'a (uyiga) bordi. Tongla hamul dastur bila yana keldi, yana suhbat bo'ldi, yana bu so'z orag'a tushdi. Yana faqir so'rdum va ilhoh qildimkim, bu ish kayfiyatini ma'lum qilg'aymen. Bu qatla xud dediki:

— Ul vaqtki, men bu she'rni yod tuttim, kushtigirlardin ham nechasi bor erdilar ham o'rgandilar, — deb uch-to'rt piyoda sort kushtigirniki, aning bila kelib erdilar, tilab dediki: "O'qung, andog'ki, mening bila o'rganib erdingiz" Alar dag'i paydarpay ravon o'qudilar. Faqirg'a taajjub ustiga taajjub voqe' bo'ldi va Pahlavon so'zi sidqida mubolag'a qilur erdi. Agarchi mubolag'a hojat emas erdi, nevchunkim, sidqi da'vosida necha tonuq ham o'tkardi.

Oqibat andoq ma'lum bo'ldikim, egnimni ulaydurg'onda jaybimda qog'oz ko'rubtur, ohistaliq bila ul qog'ozni chiqorib ko'rubtur va ma'lum qilibdurki, ushbu yaqinda aytilg'on she'rdur. U-qog'ozni ochuq yonida qo'yubdur va yod tutbdur va chirmab, jaybimg'a solibdur. Hamul zamon bo'lg'on so'zlarni orag'a solibdur. Oqshomki, tak'yasig'a boribdur, kushtigirlariga taklif bila o'rgatibdur va buyurubdurki, ehtimomi tamom bila takror qilibdurlarki, o'qur chog'da ravon o'qug'aylar.

Pahlavonning ul nav' g'arib ishlari va ajib zarofatlariki, tabg'a mujibi taajjub va aqlg'a boisi tahayyur bo'lg'ay — ko'p erdi.

Yuqar yomonlig' angakim, kirar yomon el aro,



V.Y.Kaydalov chizgan Navoiy portreti

Ashraqat min aksi shams il-ka'si anvor ul-xudo,
«Yor aksin mayda ko'r» deb, jomdin chiqdi sado.

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'an safol,
Jom o'lur getiynamo, Jamshid ani ichkan gado.

Jom-u may gar bo'yladur, ul jom uchun qolmoq bo'lur,
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,
Jomi may tuttsang meni devonadin qil ibtido.

Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar,
Chehrayi maqsudi mahv o'lg'ay hamul dam moado.

Vahdate bo'lg'ay tuyassar may bila jom ichrakim,
Jom-u may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Sen gumon qilg'ondin o'zga jom-u may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido.

Tashnalab o'lma Navoiy, chun azal soqiysidin
«Ishrabu, yo ayyuhal-atshon» kelur har dam nido.

Ashraqat min aksi shamsil...

Alisher Navoiyning to'rt devondan iborat «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi») nomli lirik she'rlar to'plami «Ashraqat min aksi shamsil...» g'azali bilan boshlanadi. An'anaga muvofiq g'azal matla'i (birinchi bayti)ning birinchi misrasi arab tilida bitilgan. Xuddi shu arabcha jumla mazmuni keyingi baytlarda davom ettiriladi va shoir nazarda tutgan ma'nolar birin-ketin ravshanlashib, turli tashbeh-timsollar, istilohlar bilan o'quvchiga yetkaziladi.

Bugina emas, ushbu g'azal o'zidan keyin keladigan g'azallar uchun ma'lum ma'noda dasturiy xususiyatga ega. Ya'ni unda ulug' shoir dunyoqarashining asosiy yo'nalishi aks etgan va u keyingi g'azallarda davom ettirilgan. Shu ma'noda mazkur g'azal ma'nolarini to'g'ri tushungan odam Navoiy devonlaridagi boshqa g'azallarni ham anglab yetishga kalit topadi va shoir ideallari olamiga kirib boradi.

G'azalda olamning ilohiy mohiyati va buni anglagan inson zavq-u shavqi, qalb sururi ifodalangan. Hududsiz bu olam yakka-yu yagona Allohnинг tajalliy nuri bilan barhayot, munavvar va jozibali. Shukur, shu qudrat barcha jismlarni bir-biri bilan vobasta etadi, ulug' mutnazamlikda saqlaydi, barqaror va poydor etadi. Ushbu nur Quyosh ko'rinishida beqiyos ne'mat bo'lib, har sahar porlashi, barcha jonzotlar, jumladan, inson qalbini shodlikka limmo-lim etishi ayon haqiqat. Ammo Quyosh ham bir timsol, bir tashbeh, xolos. Ilohiy haqiqat, tajalliy bundan-da ulkan, ul jami borliqni, jumladan, quyoshni ham qamrab oladi. Bu Haqiqat va beintiho Qudratni orif inson, piri komil anglab yetadi. Buni anglagan orif, vali zotlar ham qalblari porlab, shu ma'rifat nurini boshqa talabgorlarga yetkazadilar. Yor aksi bilan oshno etadilar.

Diqqat qilsangiz, g'azalda jom va may istilohlari boshidan oxirigacha bir-biri bilan bog'liq, ammo xilma-xil talqinlarda davom etgan. Jom moddiy dunyo va may esa Yorning tajallisini aks ettiruvchi va unga bog'langan ko'ngil ishqil tug'yonini anglatuvchi timsollar ekan, bunda uch ma'no bir-biri bilan bog'liq holda zuhur etadi: 1) ilohiy nur jilos; 2) dunyo; 3) inson qalbi. Inson agar faqat dunyo tashvishlari (zangi) bilan bog'lansa, u Ilohiy nurdan bebahra qoladi. Holbuki, insonning oliy maqsadi – o'z Asliyatini idrok etish va Unga qaytishdir. Shu bois u ko'ngil kirlarini yuvib, uni Allah nuri aks etgan jomga aylantirishi lozim, chunki ana shu darajaga yetgan odam dunyoning o'zi Allah jamoli aks etgan mazhar va jom ekanini anglab yetadi. Shunda inson o'zini qudratli, mukammal his etadi va faqir, xoksor

bo'lsa ham bu muhabbat otashida pishib, podsho Jamshiddan kuchliroq sezadi. Bunda quyidagi rivoyatga ishora ham bor: deydilarki, shoh Jamshid mayni ixtiro qilgandan keyin, donishmandlar ko'magida shunday bir jom yasatgan ekanki, agar unga may to'ldirsalar, butun olam va uning voqeahodisalari aks etar ekan. Jamshid, butun olamni shu jomda ko'rib turar ekan (Iskandar yasattirgan ko'zgu ham shunday xususiyatga ega bo'lgan deyishadi).

Alisher Navoiy shu rivoyatlarga ishora qilib, birinchidan, orif inson qalbi ham olamni va ilohiy tajalliyni ko'rsatadigan ko'zgudir, chunki u Ishq, ilohiy sirlar, hikmatlarga to'la degan g'oyani ifodalasa, ikkinchidan, darveshning siniq ko'ngli («sing'on safol») Jamshid kabi shohlar qadahidan ham e'tiborliroq, qimmatliroq bo'lib, ayni shu «siniq ko'ngillar» Illoh nurini aks ettirib, dunyonı ko'rsata oladi, degan fikrni bildiradi.

Ana shu «siniq ko'ngillar» sadoqati, muhabbatni ularni piri komillarga yaqinlashtiradi va ular tajalliyot mayini birinchi bo'lib ichadilar. Hol martabasiga ko'tariladilar va bunday vaqtida ular uchun jom va may, ya'ni dunyo va iloh qo'shilib ketadi. Parvardigor qudrati, jamolini butun mohiyati bilan his etib, sarxush bo'ladilar.


Navoiy bu o'rinda Ilohiy tajalliy bilan moddiy olam insonda birlashgan degan vahdat ul vujud ta'limoti g'oyasini olg'a suradi: may bilan jom orasida shunday bir Yagonalik hosil bo'ladiki, qaysi dunyo, qaysi iloh ekanligini ajratish mumkin bo'lmay qoladi.


Shundan keyin shoir darveshlar tilga oladigan «may», «mayxona» so'zlarini tushunmay, ularni mazammat etadigan zohir bin, ma'nolar sirridan bexabar zohidni tanqid qiladi va Qur'on oyatiga ishora etadi. Bu oyatda Muso payg'ambar o'z qavmini Misrdan olib chiqib ketayotganda, qavm Musoga chanqoqlikdan nolib murojaat qiladilar. Shunda Musoga «Hässangizni qoyaga uring» degan vahiy keladi. Parvardigoring bu mujdasini eshitgan Muso hassasini qoyaga urganda, buloq paydo bo'lib, sharqirab suv oqadi...

Ya'ni Alloh qudratining chek-chegarasi yo'q, olam Nuri bilan to'liq ekan, buni anglash, bunga yetishish va moddiy hayot bilan ma'naviy hayotni fayzli, mazmunli qilishga intilish lozim, degan g'oya Navoiy g'azali mag'zini tashkil etadi. Shoir ayni shu fikrni qator asarlarida ifodalab, hayot ma'nos, insoniylik ma'nosini ruhiy yuksalish bilan bog'lab talqin etadi.

Najmiddin Komilov

Istasangkim, ko 'rmagaysan bevafolig', ey rafiq,





XAMSA

Agarchi Shayx Nizomiy nazm ahlining ustodidur, o‘z «Xamsa»sinı mashhur budurkim, o‘ttuz yilda takmil berib turur. Va Mir Xisravkim, «Xamsa» abyoti adadin o‘ttuz mingdin o‘n sekiz minga ixtisor qilib turur va shuhrati mundoq tururkim, olti-yetti yilda tugatib turur.

Bu fasohat maydonining safdari va balog‘at beshasining g‘azanfari bovujudi ulkim, ko‘p afsonalarda dilpazir tafsirlar berdi va tab’pisand islohhlar qildi, bunyodining ibtidosidin savodining intihosig‘acha hamono ikki yildin o‘tmadi va aytilg‘on avqot hisobg‘a kirsa, desa bo‘lg‘aykim, olti oyg‘a yetmadikim, aning afsonalari ranginlig‘in va abyoti sehroyinlig‘in va tarokibi matonatin va maoniysi latofatin mutolaa qilg‘an kishi bilg‘ay va mulohaza qilg‘on kishi fahm qilg‘ay.

Husayn Boyqaro

Dostonning bizga ma’lum bo‘lg‘an eng birinchi yozuvchisi X asrning mashhur fors shoirlaridan Abulqosim Hasan Firdavsiydir. Firdavsiyning qadim Eron dostonlarini bilg‘uvchi bir kishi bo‘lub shul qadim dostonlardan foydalaniib, o‘zining mashhur «Shohnoma»sinı yozg‘ani ma’lum. Firdavsiy o‘zining «Shohnoma»sida «Xusrav-u Shirin» dostoni uchun ayrim bir o‘rin beradir.

...Nizomiyning bu asarig‘a «Xusrav-u Shirin» ismini berishi asardagi bosh qahramonning Xusrav bilan Shirin bo‘lg‘anlari uchundir. Bu asarda Farhodg‘a berilgan ro‘l ozdir, ikkinchi darajadadir.


...Amir Xusravi Dehlaviy o‘zining «Xusrav-u Shirin» dostonini Nizomiy kabi boshlab shu kabi bitiradir.

...Navoiy Nizomiy bilan Xusrav Dehlaviyning «Xusrav-u Shirin» dostonlariga o‘xshatmay yozmoq istaginda boshlab, mazkur asarni tanqid ko‘zidan kechirdi va dostonning ular tomonidan qabul qiling‘an shakliga rozi bo‘lmadi.

Abdurauf Fitrat

*Tuzay nazm mulkida shohona bazm,
Hamul bazm sori qilay yona azm.*

*Bilik taxti uzra chiqib o‘lturay,
Xayol elchisin har taraf chopturay.*



Navoiy buyuk shoirlar davrasida

- | | | |
|---------------------|---------------------|------------------------|
| 1. Hasan Dehlaviy | 4. Nizomiy Ganjaviy | 7. Abulqosim Firdavsiy |
| 2. Alisher Navoiy | 5. Xusrav Dehlaviy | 8. Sanoiy |
| 3. Abdurahmon Jomiy | 6. Shayx Sa'diy | 9. Anvariyy |
| | | 10. Xoqoniyy |

دایم لەغا بىزىم را عىنم ايدى
عەنى كە ماڭم او زامان ئايدى
كۆنچى دېشىن بولۇت زارى
ماشلارى دراج بازا ارىق



دېرى كە منىن سىكا يوق سىن
اين اول بىيىل مىن راغى ئىن
وھىلى توپىسىم دەھارام اول
عىيش وھىپ وقى ئواز زىم

Sher va durroj hikoyatiga ishlangan rasm

Sher va durroj hikoyati

Bor edi bir beshada bir tund sher,
Vahshat aro ko'k asadidek daler.

Chun bo'lur erdi bolalab zavqnom,
Mo'r bolasin qilur erdi halok.

Tishlabon ul moyayi payvandini,
Og'zida asrar edi farzandini.

Bor edi durroje o'shul beshada,
Sheri jayon vahmidin andeshada.

Sherki tishlab bolasin dam-badam,
Beshada har yon qo'yari erdi qadam.

Yetgach aning boshi uza nogahon,
Far eta uchsa edi ul notavon,

Vahm ila seskanmak edi sher ishi,
O'lltur erdi bolasig'a tishi.

Tish bila aylab bolasi yorasin,
Yora etib o'z jigari porasin.

Doim anga bu g'am aro g'am edi,
G'am neki, motam uza motam edi.

Ko'ngli bu ishdin bo'lub ozorliq,
Boshladi durroj bila yorliq.

Dediki, mendin sanga yo'q qasd-u kin,
Emin o'l-u bil meni dog'i amin.

Vahmni qo'y, hamdam-u hamrozim o'l,
Aysh-u tarab vaqt navosozim o'l.

Men dog'i lahning eshitib shod o'lay,
Nag'mang ila qayg'udin ozod o'lay.

Shart bukim yetsa gazande sanga,
Solsa falak hiylasi bande sanga.

Lutf qo'lin holinga hamdast etay,
Xasmni sarpanja bila past etay.

Lug'at

aduv — dushman, yov, yog'iy

amin — ishonchli, to'g'ri; omonatga xiyonat qilinmaydigan; posbon;

andeshad — fikr, o'ylov; xavf

aysh-u tarab — shod-u xurramlik

besha — o'rmon, to'qay, changalzor

daler — shijoathi, jasur

dom — tuzoq

durroj — qirg'ovul

gardishnamoy — aylanma

gazand — zarar, ziyon, ozor

hamdast — qo'ldosh, orqadosh, hamkor

humoy — afsonaviy qush, davlat qushi

ilhon — yoqimli ovozlar, xonishilar, sayrashlar

iltifot — lutf, marhamat, e'tibor

kizb — yolg'on

ko'k asadi — osmon sheri, quyosh

lahn — ovoz, ashula, sayrash

maxlas — qutulish, xalos bo'lish

mazmum — yomon, nafratli

Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,
Seni aduv domidin aylay xalos.

Sher ko'p afsun bila chun qildi jahd,
Sidq ila durroj dog'i qildi ahd.

Andoq aro yerda ayon bo'ldi mehr,
Kim hasad eltur edi andin si pehr.

Qaydaki orom tutub sharza sher,
Girdida durroj uchubon daler,

Boshig'a parvoz ila gardishnamoy,
O'yłaki sulton boshi uzra humoy.

Sher eshitib aning ilhonini,
Fahm qilib savtida yolg'onini,

Der edi, yolg'on de makim shurm erur,
Kizb tuz el ollida mazmum erur.

Pand eshitmas edi durroji mast,
Kizbdin etmas edi afg'oni past.

Bir kun aning qasdig'a bir saydgar
Hodisa domin yoyib erdi magar.

Dona bila suv sari qilg'och xirom,
Tortti sayyod aning ustiga dom.

Qichqiribon dom aro ul mubtalo,
Necha dedi: «Tot! Meni tuttilo!»

Sher qulogiq'a yetib ul maqol,
Savtini doimg'idek etti xayol,

Ko'p eshitib erdi bu yolg'onini,
O'yła gumon etti chin afg'onini.

Har nechakim rost fig'on ayladi,
Sidqini ham kizb gumon ayladi.

Maxlasig'a aylamadi iltifot,
Toki anga munqati' o'ldi hayot.

mo'r — chumoli, qumursqa

moyayi payvand — farzand

munqati' — ajralgan, kesilgan, uzilgan

nag'ma — ohang, kuy, maqom; sayrash

navosoz — dodga yetuvchi, g'amxo'r

notavon — kuchsiz, bo'sh; zaif; toqatsiz

qasd-u kin — kek, o'ch, ko'rolmaslik

zarpanja — qo'l hanjalari, kuch, kuch-qudrat

sav'i — kuy, maqom; tovush, ovoz; shovqin;

saydgar — ovchi

sayyod — ovchi

sharza — dahshatli, haybatli

sheri jayon — yirtqich, g'azabli

sidq — chin, rostlik, to'g'rilik

si pehr — osmon, falak

tund — shiddatli, g'azabli


tuz — tekislik; to'g'rilik

vahm — vahima, qo'rqish

vahshat — vahshiylit, yovvoyilik, qo'rqinch

xasm — dushman, raqib

Kishi aybin yuziga qilma izhor,



Shohning imom Faxr Roziy bilan hammomdagи suhbatи. «*Hayrat ul-abror*».

**Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh aro
hammomda oshnoliq sham'i yorug'oni va imom so'zidin sultonning
istig'nodin ilik yug'oni**

Zumrayi roz ahlig'a masnad nishin,
Dahr imom ul-umami faxri din.

Qildi chu Xorazmni oromgoh,
Ko'rmagiga kelmadi Xorazmshoh.

So'rg'ali ul chunki qadam qo'ymadi,
Ilm shukuhi muni ham qo'ymadi.

Shahni pushaymon qilib erdi uyot,
Lek imom aylamadi iltifot.

Bo'ldi base pardada guft-u shunud,
Parda chu qo'pmadi arodin ne sud.

Bor edi hammomda bir kun imom,
Shah dog'i hammomga qildi xirom.

Bir-biri birla bo'lubon muxtalit,
Shoh savol etdi bo'lub munbasit.

«K-ey, bo'lub el ilming ila bahravar,
Ayt qiyomat ishidin bir xabar.

Kim necha ul kunda malol o'lg'usi,
Har kishiga anda ne hol o'lg'usi?»

Shoh chu bu nuktani qildi savol,
Bo'yla javob aytdi sohib kamol:

«Kim sangakim, hashr so'zi kom erur,
Bil anga monand bu hammom erur.

Anda gado shah bila yakson bo'lub,
Shoh-u gado borchasi uryon bo'lub,

Joh-u jalol ahli saningdek bori
Ichkari-yu bor-u yo'qi tashqori

Ilm-u amal ahli meningdek tamom,
Harne yig'ib hamrah etib vassalom».


Yo'q sanga sultonlik ila sud ko'p,
Lek manga ilm ila behbud ko'p.

Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil.

Lug'at

bahravar – foydalanuvchi, bahra oluvchi
bebhud – yaxshilik, sog'lomlik; najot
dahr – dunyo, olam; zamon, davr
guft-u shunud – so'zlashish, bahs, munozara
hashr – to'planish, yig'ilish; o'lganlarning qayta
tirilish payti
joh-u jalol – ulug'lik, baland martaba
kom – tilak, istak, maqsad; bahra, bahra olish
maqsud – maqsad, istak
masnad nishin – taxt (yuksak o'rinn)ga o'tirish
monand – o'xshash

munbasit – ochiq chehrali, xursand
muxtalit – qorishiq, aralash
ne sud – nima foya
nukta – nozik ma'noli so'z
qildi xirom – yurdi, harakatlandi
shukuh – shavkat, savlat, ulug'lik
sud – foya, mansaat
uryon – yalang'och, kiyimsiz
yakson – bir xil, baravar, teng
zumrai roz – ahli dillar, sirdoshlar



Hotami Toyi hikoyatiga ishlangan devoriy rasm

Hotami Toyi hikoyati

Hotami Toyig'a bir ozodavash
Dediki: «Ey himmating ozodakash,

Bazm ichidin dasht sori bir nafas,
Kasbi havo aylamak ettim havas.

Toki saxo bo'ldi kafing varzishi,
Ko'rdung ekinmu bir o'zungdek kishi?»

Sayrda ko'rdum bir asiri mihan,
Bir quchoq orqasig'a yuklab tikan.

Dediki: «Bir kun qilibon jashni om,
Indab edim bodiya ahlin tamom.

Jismi uyin aylabon ul yuk nigun.
Tirkabon ul uyg'a asodin sutun,

Matbox aro yuz teva qurban edi,
Qo'y-u qo'zi behadu poyon edi.

Har qadam urg'uncha tinib muddate,
Har nafas olg'uncha o'tub fursate.

Soldi ul emgak o'ti ko'nglumga tob,
Lutf-u tarahhum bila qildim xitob:

«K-ey qadin emgak yuki past aylagan,
Jismida g'am xori nishast aylagan,

Dasht aro go'yoki xabar bilmading,
Hotam uyi sori guzar qilmading?

Da'vat etib asru farovon bukun,
Qildi yomon-yaxshini mehmon bukun.

Tashla tikan, gulshani izzatqa yet,
Chekma mashaqqat, qo'p-u da'vatqa yet».

Menda chu fahm etti bu nav' iztirob,
Bosh ko'tarib kului-yu berdi javob:

«K-ey solibon hirs ayoqingg'a band,
Ozu tama' bo'ynunga bog'lab kamand.

Vodiyi g'ayratg'a qadam urmag'on,
Kunguri himmatg'a alam urmag'on.

Sen doqi chekkil bu tikan mehnatin,
Tortmag'il Hotami Toy minnatin.

Bir diram olmoq chekibon dastranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj».

Ulki bu yanglig' so'zi mavzun edi,
Medin aning himmati afzun edi».

Lug'at

afzun — ortiq, ziyoda, ko'p

asru — ortiq, benihoya, talay, juda ko'p

bodiya — cho'l, dasht, sahro

dastranj — qo'l mehnati, mashaqqat

farovon — ko'p, mo'l, serob

ganj — xazina

guzar qilmoq — o'tmoq

jashni om — omma uchun bazm

kaf — kaft, qo'l kafti

kamand — sirtmoq, tuzoq

kasbi havo aylamak — toza havo olmoq

kungur — panjara, dandana

lutf-u tarahhum — yaxshi muomala, rahmdillik,

g'amxo'rlik

matbax — ovqat pishiriladigan joy, oshxona

mavzun — chiroyli, kelishgan

mihan — mehnat va qiyinchiliklar

nigun — egilgan, bukilgan

nishast aylagan — o'tirgan

ozodakash — nozik tabiatli

ozodavash — ozod, erkin, pokiza

saxo — saxiylik, qo'li ochiqlik

varzish — mashq., ko'nikma, odat



پروانه قاپی اکم دناع ایلماقان دور
بجراوی و فرمایه سیمین ییشان
ر غماله ابره راو اکه سنگدا عمان

Ot ustidagi Shirinni ko'targan Farhod

Suv ochish marosimida

Mihinbonu bila Shirin surub ot
Ki, qasr ollig'a yetkaylar sudin bot.

Va lekin suv bo'lub andoq sabukrav
Ki, yetmay girdig'a xingi sabukdav.

Yugurmakka ulus baskim qilib mayl,
Yiqilib bir-biri ustida har xayl.

Qilib el keynidin ham po'ya Farhod,
Ko'zi ul yonkim ul huri parizod.

Sumanbar chopib erdi o'n yig'och yo'l,
De maykim tuz, tamomi tog' ila cho'l.

Yana qaytib samandin surdi chun tez
Yeti-sekkiz yig'och bo'ldi sabukxez.

Nasimekim, yuki siym o'lg'ay oxir
Taharrukda anga biym o'lg'ay oxir.

Aningdek bodpoyi tutti orom
Ki, bosqon yerdin o'tmas bo'ldi bir gom.

Bor erdi sursa chirmoshib ayog'i,
Paripaykar yiqilmoq xavfi dog'i.

Chu oshiq ongladi qilg'och taammul
Ki, yeldin tushkudekdur yer uza gul.

Yer o'pmaklikka majnundek xam o'ldi,
Quyosh ostida gardundek xam o'ldi.

Ko'tardi orqasig'a bodponi,
Nechukkim, bodpo ul dilraboni.

Bir ilgi ikki qo'lin qildi mahkam,
Yana bir ilgi ikki butlarin ham.

Aningdek po'yada ko'rguzdi ta'jil
Ki, gardi surma bo'ldi mil dar mil.

Mihinbonu ani nazzora aylab,
Topa olmay ilojin chora aylab.

Chu ikki-uch yig'och gom urdi shaydo,
Bo'lub ollinda qasr-u havz paydo.

Qadamni qo'ydi qasr ayvoni sori,
Salomat raxshi birla shahsuvori.

Turub ayvonda solim chun egib qad,
Hamul turg'on su birla sarvi gulxad.

Boshig'a sarvning aylandi filhol,
O'pub yer, zor yig'lab, yondi filhol.

Chiqib tog' uzra aylab ashkboron,
Chekib un, o'ylakim abri bahoron.

Chu ul qildi bulutdek tog' uza mayl,
Arig'din suv yetishti o'ylakim sel.

Labolab ul sudin chun havz to'ldi,
Arig'lar dog'i molomol bo'ldi.

Bo'lub suv qasr atrofig'a doyir,
To'kuldi dasht uza bo'lmoqqa soyir.

Ariqqa qo'ydilar «Nahr ul-hayot» ism,
Falakvash havzg'a «Bahr un-najot» ism.

Lug'at

ashkboron – ko'z yoshini yomg'irdek to'kuvchi
Bahr un-najot – najot dengizi
biym – qo'rquv, xavf
bodpoy – yel oyoq, chopajir, tezyurar ot
filhol – to'xtovsiz, darhol, shu onda
gardun – falak, osmon
gom – qadam, odim
molomol – to'la, limmo-lim
Nahr ul-hayot – Hayot arig'i
nasim – shabada, tong shamoli
po'ya – yo'rtish, o'rtacha tezlikda yurish
raxsh – olachipor, chiroyli ot;
sabukrav – tez yuruvchi, chaqqon

sabukxez – yengil, chaqqon
gulxad – gul yonoqli, chehrasi go'zal
shahsuvor – ot minishga mohir
siym – kumush, ko'ch; oq
solim – sog', salomat, omon
sumanbar – oqbadan, go'zal
ta'jil – jadallik, tezlik, shoshilish
taammul – mulohaza yuritish, chuqr o'ylash
taharruk – qimirlash, harakatlanish
tuz – tekislik
xayl – guruh, to'da, to'p
xingi sabukdav – tezyurar ot
yig'och – o'lchov birligi

پیشکای ایا عینخه سوت بونه
خاک دمینخه ایکی کوزنه
یونه لاب غیمیم ایلک شنکالا
مونکرا ب مونکوم ایت بادا
بونخ کیک پلر تیزی و قشدار ہلکا نوع رازن
چورکا ویب املق هشتم کم وس ملی با پاریب نادم



Layli va Majnun

Laylining Majnunga yozgan maktubidan

Kim: «Ushbu raqamki naqshi Chindur,
Bir xastag'a bir shikastadindur.

Ya'ni meni zori mabtalodin,
Sangaki, qutulmading balodin.

Ey ishq o'tida xasim, nechuksen,
Ey bedil-u bekasim, nechuksen?

Holing nedurur firoqim ichra?
Fikring nedur ishtiyoqim ichra?

Sochingga yopushsa xor-u xoshok,
Kim tortar ekin birin-birin pok?

Jismingki qonasa g'am toshidin,
Kim yur ekin oni ko'z yoshidin?

Xoreki, kafingga'a borur erkin,
Kirzik bila kim chiqorur erkin?...

Qum uzra yiqilsa jismi zoring,
Kim bor ekin anda g'amgusoring?

Har yon yugururda zor-u bekas,
Soyang sanga hamrah erkin-u bas.

Tog' ichida issig' o'lsa ma'lum,
Soya qilur erkin ustunga bum...

G'am za'fida dasht uzra yotsang,
Qum bistar ekin ayoq uzotsang.

Tun boshinga vahsh o'lur ekin jam',
Ollingda bo'ri ko'zi ekin sham'.

Qon yutqali istasang piyola,
Topilmas ekin magarki lola.

O'lturur ekin chibin qoshingg'a.
Evrulur ekin quyun boshingg'a.

Ey kosh, sipehri tiyra anjum,
Bergay manga dog'i ul tana'um

Kim, tun-u kun o'lg'amen rafiqing,
Yo'lsiz yugururda hamtariqing.

Sen bo'lsang-u men jahonda mavjud,
Bo'lsa yana koinot nobud....

Sening nechakim g'amingg'a yo'q mahl,
Chun er kishisen bu sahl erur, sahl....

Miskin meni zori poybasta,
Yo'q, yo'qki, zaifi poshikasta...

Bo'lmoq yuz alam uyida mahbus,
Bir yon, yana bir yon o'ldi nomus.

Er majlisi ichra roh erur zeb,
Xotun kishiga saloh erur zeb.

Bu mehnati ishq pech-darpech,
Nomus chu ketti barchasi hech.

Pardasini g'uncha aylasa chok,
Barbod etar oni charxi bebok.

Sensizki g'amim dame kam ermas,
Sendin gar emas ko'p, oz ham ermas?....

Lug'at

raqam – yozuv, ko'ch. maktub, xat

shikasta – siniq, majruh (bu yerda ko'ngli
siniq yoki yarimta) ma'nosida

yur – yuvadi

xor – tikan

bum – boyo'g'li, boyqush

g'am za'fida – kuchsizlik, holsizlik

bistar – ko'rpa-yostiq, o'rin

vahsh – yovvoyi (vahshiy) hayvon

sipehri tiyraanjum – xira yulduzli osmon,
nomuborak taqdir

tana'um – rohat-farog'atda yashash

hamtariq – hamroh, yo'ldosh

mahl – muhlat, fursat

sahl – oson, yengil, qulay

miskin – bechora, notavon, faqir


poybasta – giristor, oyog'i bog'li

poshikasta – oyog'i singan, ko'ch. noiloj, chorasisz

Bo'lg'anîm aql-u havos-u umr-u jondin noumia,



Bahrom Dilorom suratini ko'rmoqda («*Sab'ayi sayyor*»)



Toj-u taxtni gadolikka almashtirgan shoh Iskandar huzurida. «*Saddi Iskandariy*»

NIZOMIY GANJAVIY

(1141 – 1217)

Ganja - vatan, ko'ngli aning ganjxez,
Xotiri ganjur-u tili ganjrez.

Fikrati mizoni bo'lub xamsasanj,
"Xamsa" dema, balki degil panj ganj.

Alisher Navoiy



Qozonteg qaynab ush savdo pishurdum,
Nizomiy bolidin halvo pishurdum.

Qutb Xorazmiy

Menkim pishurdum bu laziz oshni,
Shayx Nizomiydin olib choshni.

Xaydar Xorazmiy

HIKMATLAR

*Oldin bilib olib keyin so'zlagil,
Oltin topib, so'ngra xarjin ko'zlagil.*

*Yoshlikdir-ku asli dadillikka toj,
Gohida ish keksa aqliga muhtoj.*

*Egrilik keltirar boshga g'am-alam,
To'g'rilik-chi, barcha g'amlarga barham.*

*Noloyiq so'z zohir etsa nodon til,
Unga sukunatni javob aylagil.*

*O'zgalar aybiga ziyrak nazar sol,
O'z aybing ko'rgandek undan ibrat ol.*

*Eshitganing yuvib tashla suv misol,
Faqat ko'rganingdan de ko'zgu misol.*

*Agar suv top-toza, bo'lsa ham zilol,
Ko'p ichilsa ul ham me'daga malol.*

*Dunyoda yechilar har qanday tugun,
Faqat birdan emas, ohista, sekin.*

*Odamlga aralash, bo'lsang gar odam,
Odamlar ichradir mo'tabar odam.*

*Ajodolar bog'-u rog' ekib ketishdi,
Mevasiga yangi avlod yetishdi.*

*Kimki o'rganishni uyat, or demas,
Suvdan dur topadi, toshdan la'l, olmos.*

*Hech kim demaydi, jonim,
Achchiq mening ayronim.*

Tengrisiga ayladi yuz qatla shukr izhorini

XUSRAV DEHLAVIY

(1253 – 1325)

Laqabi yaminuddindur. Otasi Lochin qabilasining ulug'laridan ermish.

Alisher Navoiy

Shoirlardan hech biri o'zidan keyin Amir Xusravchalik ko'p she'r qoldirmagan. U forsiyidan tashqari urdu, hind va arab tillarida ham asarlar yozgan.

Badiuzzamon Xurosoniy

Amir Xusrav o'zining risolalaridan birida yozganki, mening she'rlarim besh yuz mingdan kamroq, to'rt yuz mingdan ortiqroqdir.

Davlatshoh Samarcandiy



SHOIRNING DEVONLARI

«Tuhfat us-sig'ar»
(``Yoshlik tuhfasi``)

«Vasat ul-hayot»
(``Umr o'rtasi``)

«Quvvat ul-kamol»
(``Kamolot quvvati``)

«Baqiyati naqiya»
(``Betoblik qoldig'i``)

HIKMATLAR

*Kimda yo'q odamlig'i, dema uni aslo kishi,
Hidi bo'lmas udning o'tunluqdir ishi.*

*Kim jafo ko'rsa shoh nazdida aytar,
Agar shohi – jafochi, uni kim qaytarar.*

*Yosh novda mevani paydarpay berar,
Keksa shox mevasin ayt-chi kim terar.*

*Boshini ko'tarmasa uyqudan dehqon,
Chumchuq ixtiyori bo'lar bor xirmon.*

*Kim ari ishiga qilolmas toqat,
Asalni ko'radi uzoqdan faqat.*

*Bu keng olam do'st-u yoron bilan xush,
Bog'-u bo'ston gul-u rayhon bilan xush.*

**NURIDDIN ABDURAHMON
IBN AHMAD JOMIY
(1414 – 1492)**

Navoiy haqida Jomiy:

«Kel, Jomiy, umr bo'yи mashaqqat tortib, ko'nglingdan shu «besh ganj»ni dunyoga chiqarding. Sening bu «Besh»ing («Xamsa»ng) shunday kuchli panja bo'ldiki, daryokaflar qo'li buralib ketdi ... Biroq, har xazina o'lchovchi (ya'ni yetuk shoir) qalamidan bu o'tar dunyo «Besh xazina» bilan boyigandir. U «Besh»liklarga sening «Besh»ing qachon tenglashardi?



Ularning bir xazinasi sening yuz xazinangdan yaxshidir. Xususan, u panjaki, ganjadan sarpanja urganda Sher kabi o'z sarpanjasini urdi, turkiy tilda bir ajoyib qo'shiq kuyladiki, jodu nafaslilar og'zi muhrlandi. Bu qalamga falakdan ofarinlar yog'ilsin! Chunki bu yoqimli naqshni o'sha qalam yaratdi va forsiy til egalari, forschalar nazm durlarini tuzuvchilarga rahm qildi: u ham shu forsiy tilda yozganda boshqalarga so'z aytishga majol qolmasdi. Bu mo'jizakor nazm tarozisi qarshisida Nizomiy kimu Xusrav kim bo'ldi?

Ey (Navoiy), sening ta'bing so'z ustodidir. Qalaming ochqichi bilan so'z eshigini ochding. Ravnaqdan qolib ketgan va xorlik burchagidan o'rin olgan (turkiy) so'zga sen yangidan obro' berding. Uni ijod maydoniga olib chiqding. U sening ra'ying nuridan safoli bo'ldi, lutfing navosi (boyligi)dan navoli (bahramand) bo'ldi».

Abdurahmon Jomiy

ABDURAHMON JOMIY HIKMATLARI

Qaysi farzand fazl-u hunarsiz bo'lib,
Otadan lof ursa, odamdan yiroq,
Mevali daraxtning mevasiz shoxi
O'tindan boshqaga yaramas mutloq.

* * *

Eng sevimli afsonadir ishq,
Eng yoqimli taronadir ishq.

* * *

Qanoatli yashar osuda,
Ochko'z azob chekar behuda.

* * *

Ibrat uchun o'tganlarni yod ayla,
O'tganlar yodidan dilni shod ayla.

* * *

Mevasiz shox osmonga tarmashur,
Mevali shox bo'lsa yerga engashur.

* * *

Agar iflos bo'lsa ariqdagi suv,
Kiyim toza bo'lmas — uni yuz bor yuv.

* * *

So'zingni bezatmoq bo'lsa gar tilak,
Rostlikdir so'zingga eng yaxshi bezak.

* * *

Odamning qiymati emas siym-u zar,
Odamning qiymati bilim ham hunar.

* * *

Dunyoda kitobdan-da aziz yor yo'qdir,
G'amxona zamonda chin madadkor yo'qdir.
Qolganda kishi tanho kitob-la doim,
Yuz rohat yetar-u sira ozor yo'qdir.

**NIZOMIY
XAMSASI**

Maxzan ul-asror

Xusrav va Shirin

Layli va Majnun

Haft paykar

Iskandarnoma

**DEHLAVIY
XAMSASI**

*Shirin va
Xusrav*

*Hasht
bihisht*


*Matla
ul-anvor*

*Majnun
va Layli*


*Oinayi
Iskandariy*

To 'kulsa gar guli, sarvi sihig'a e 'tidol o 'lsun.

NAVOIY XAMSASI



JOMIY HAFT AVRANGI



NAVOIY HIKMATLARI

Har kishikim topsa davron ichra joh-u e'tibor
Kim, aning zotida bedod-u sitam bo'lg'ay qilig'
Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa
Kim, yomonlig' qilmasa, qilg'ancha bordur yaxshilig'



Bordurur inson zotida oncha sharaf,
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.



Sarv-u gul-u lola xaridori bor,
Lek o'tunning dog'i bozori bor.



Tengriki insonni qilib ganji roz,
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.



Kimgaki bir rishta yeturdung ziyon,
Qatlinga ul rishtani bilgil yilon.



Zulmung emas edi haloyiqqa kam,
Kim qiladursen ani o'zungga ham.



Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.



Chunki tama' bo'ldi gadolar ishi,
Bilki gadodur tama' etgan kishi.

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun.



Xushdurur bog'i koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli.



Har kishikim birovga qozg'oy choh,
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh.



To hirs-u havas xirmani barbod o'lmas,
To nafs-u havo qasri barraftod o'lmas,
To zulm-u sitam joniga bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.



Birovkim qilsa olimlarga ta'zim,
Qilur go'yoki payg'ambarga ta'zim.



Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamat bo'lmas ado aning haqin yuz ganj ila.



Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.



Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.



Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu.

Bir g‘azal tablili

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.

Buki aning ahd-u paymonida men o‘lsam dag‘i
Yaxshi fursat topsang, ul bad ahd-u paymonimg‘a ayt.

Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili
Kufr ila bo‘lmish mubaddal, nomusulmonimg‘a ayt.

Buki qilmishmen jahon-u jonni aning sadqasi,
Yuz tuman jon-u jahondin yaxshi jononimg‘a ayt.

Buki yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo‘lmag‘um,
Vashig‘a bir va‘da qilg‘andin pushaymonimg‘a ayt.

Buki yuz ming fitnako‘zlug bo‘lsa paydo onsizin,
Qilmag‘um nazzora hargiz ko‘zi fattonimg‘a ayt.

Buki chok aylab yoqa, usruk chiqar el qasdig‘a,
Men o‘lub el jon topar, beboki nodonimg‘a ayt.

Dahr bog‘i gullari husnin vafosiz erkanin,
Yuzi gul, jismi suman, ko‘yi gulistonimg‘a ayt.

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo
Bulbuli yo‘q erkanin shohi suxandonimg‘a ayt.

Alisher Navoiyning «Ey sabo, ...» g‘azalida bir qarashda oshiqning dil izhoriga oid tuyg‘ular ifodasi aks etayotganday ko‘rinsa-da, aslida obyektiv voqelikka bo‘lgan estetik munosabat ifodasi bosh o‘rinda turganligini payqash ham qiyin emas. Oshiq saboga murojaat qiladi:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘ a ayt,
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘ a ayt.

Saboden kutilayotgan iltifot bitta: oshiqning holatini, chekayotgan iztiroblarini ma’shuqaga yetkazish. Ammo ma’shuqa oddiyilar qatorida turmaydi. Uning birinchi belgisi — «sarvi xiromon»ligida. Oshiqning «holi» uning «yig‘larimning shiddati» ifodasida ochiq ko‘rsatilgan. M’ashuqa — «gulbargi xandon» sifatida buni anglasa, oshiq ko‘ngli tasalli topadi.

Yorning ezgu xislatlar bilan yodga olinishi tasodify emas. Buning real asoslari bor. Eng muhimi, dastlab yorning o‘zi ham oshiqqa beparvo va loqayd munosabatda bo‘lgan emas, balki ahd-u paymon qilishga imkon yaratgan. Faqat bugun bu ahddan qaytgan holda namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun ham yor «bad ahdu paymon» sifatiga «musharraf» bo‘lgan:

Buki aning ahd-u paymonida men o‘lsam dag‘i
Yaxshi fursat topsang, ul bad ahd-u paymonimg‘ a ayt.

Yorning-ku ahdu paymondan qaytganligi aniq. Oshiqda o‘lmakdan boshqa imkon yo‘q. Bu xabarni yorga yetkazish lozim bo‘ladi. Saboning yelkasiga yuklanayotgan vazifalardan biri ham shu. Ammo buni bajarish uchun istagan harakatni qilish mumkin emas. Buning uchun tegishli fursat topilishi kerak. Bu fursatning esa, albatta, «yaxshi» bo‘lishi shartdir. Shundagina yomon («bad») ahd-u paymon egasining ko‘ngliga ozor yetmaydi. Shaxs kayfiyatidagi foje holatning bunday tiniq ifodasi, albatta, o‘quvchida ta’sirsiz qolmaydi.

Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili
Kufr ila bo‘lmish mubaddal, nomusulmonimg‘ a ayt.

Musulmon musulmonga zulm qilmaydi. Ammo ma’shuqaning zulfi oshiq dinining hosilidir. U kufrga almashgan. Kufrga almashtirgan shaxs esa ma’shuqadir. Shuning uchun ham u «nomusulmon»dir.

Baribir, ma’shuqa uchun oshiqning joni ham, jahoni ham sadaqa bo‘ladi. Zero, oshiq uchun ma’shuqadan ko‘ra «yaxshi jonon» mavjud emas:

Buki qilmishmen jahon-u jonni aning sadqasi,
Yuz turman jon-u jahondin yaxshi jononimg‘a ayt.

Oshiqning dil iztiroblari so‘ngsiz, adoqsiz. U ma’shuqa uchun «yuz jon sadqa» qilsa ham achinmaydi, pushaymon bo‘lmaydi. Ammo yorning subutsizligi, so‘zining ustidan chiqmasligi unga aziyat yetkazadi, pushaymonliklar beradi:

Buki yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo‘lmag‘um,
Vaslig‘a bir va’da qilg‘andin pushaymonimg‘a ayt.

Mazkur g‘azaldagi oshiq mumtoz adabiyotimizdagi boshqa oshiqlar bilan bir nuqtada hamfikr va o‘xhash: u o‘z yoridan boshqa go‘zallarni tan olmaydi. Buning sababi ham yana yorning o‘zi — u go‘zallikda tengsiz, qiyossiz:

Buki yuz ming fitnako‘zlug bo‘lsa paydo onsizin,
Qilmag‘um nazzora hargiz ko‘zi fattonimg‘a ayt.

Ko‘z tasviri keyingi baytda yana davom etadi. Endi u an’anaviy tarzda «usruk» deyiladi. Bu suzilgan ko‘zning poetik ifodasi. Aslida u lug‘aviy jihatdan «mast, sarxush» ma’nosiga ega. Bu ko‘z egasi «el qasdiga», demakki, boshqaga qaragan ko‘zdir. Oshiq uchun ham eng iztirobli jihat shu: bu usruk ko‘zning oshiqqa emas, boshqalarga — «el»ga qarashidir:

Buki chok aylab yoqa, usruk chiqar el qasdig‘a,
Men o‘lub el jon topar, beboki nodonimg‘a ayt.

Ma’shuqaning sharofati bilan oshiq, o‘z nazarida, «jon topishi», ya’ni hayot ma’nosini bilishga intilishi, hayot shodliklaridan, zavq-u sururidan bahra topishi lozim edi. Amalda bunday bo‘lib chiqmadi. «Men o‘lub el jon topar» degan ifoda «beboki nodon» ma’shuqani «fosh etish»ga qaratilgan. Ammo bu yerda tahdid ham, tahqir ham yo‘q. Faqat, yumshoqqina e’tiroz mayjud, xolos. Bu yumshoqlik va, ta’bir joiz bo‘lsa, oshiqning ma’shuqa oldidagi erkaligi «-im» egalik qo‘srimchasining ishtiroki bilan yanada ta’kidlanibroq yuzaga chiqmoqda.

Ma’shuqani insofga chaqirish mumkin. Shunday yo‘llardan biri umrning o’tkinchi ekanligini, husnning abadiy qolmasligini eslatish. Buning uchun

olamdag'i, tabiatdag'i boshqa bir hodisalar esga olinadi, qiyoslanadi:

Dahr bog'i gullari husnin vafosiz erkanin,

Yuzi gul, jismi suman, ko'yi gulistonimg'a ayt.

Bu yerda «dahr bog'i gullari»ning ham o'z, ham ko'chma ma'noda qo'llanganini qayd etish kerak. U o'z ma'nosida olamdag'i gul — o'simliklarni anglatadi hamda ularning go'zalligi muvaqqatligini ta'kidlashga xizmat qiladi. Ko'chma ma'nola esa u go'zallarni, umuman, tirik jonlarning barchasini ham anglatayotgani ko'rinish turibdi.

Nihoyat, oshiq ko'ngil yorning ta'rifini yana bir pog'onaga ko'taradi. Endi u «sshohi suxandon» sifatida ta'riflanadi. Birinchi marotaba shu o'rinda oshiq ham o'zining asl qiyofasini oshkor etishga jazm etadi, o'zining «xushnavo bulbul» ekanligini bildirib o'tishni lozim topadi:

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo

Bulbuli yo'q erkanin shohi suxandonimg'a ayt.

Ushbu g'azalda qo'llangan so'zlar oshiq va ma'shuqa holatining o'ziga xosligi va darajasini baholashning mezoni bo'lib xizmat qilmoqda. Bu yerda ma'shuqaning oshiq uchun naqadar aziz va qadrli ekanligi obrazli tarzda aks etgan.

G'azal uchun lug'at

bad — yomon

bebok — qo'rqlmaydigan, hayiqmaydigan,
tortinmaydigan; hayosiz, parvosiz, bevosh

dahr — dunyo, olam, zamon, davr; dahr bog'i —
ko'ch. olam, dunyo, tabiat

dag'i — yana, tag'in; ham, hamda

fatton — fitna qiluvchi, maftunkor

gulbarg — gul yaprog'i, atirgul

hargiz — hech vaqt; aslo

kufr — kofirlilik, islomni tanimaslik

ko'y — ko'cha, yo'l; qishloq, mahalla

mubaddal — almashingan, o'zgartirilgan

nazzora — qarash, nazar tashlash, ko'z solish

onsiz — usiz, uning yo'qligida

sabo — mayin, yoqimli, sahar paytida esadigan
shabada.

sarvi xiromon — **sarv** — to'g'iri, tik o'sadigan,

qishin-yozin ko'karib turadigan, hidi va
ko'rinishi yoqinli bo'lgan daraxt, **xiromon** — o'zini har tornonga tashlab noz bilan
yuruvchi, sarvi xiromon ko'ch. ma'noda go'zal
yurishli nozanin, ma'shuqa

suman — yasmin so'zining qisqargani: oq, sariq
rangli xush isli gul

suxandon — so'z ustasi, go'zal va o'rinni so'zlashni
uddalay oladigan

usruk — mast, sarxush

xandon — kuladigan, kuluvcchi; shod, xursand,
gulbargi xandon — ochilib turgan
atirgul, ko'ch. shod-xurram yuruvchi
ma'shuqa

zulf — soch, soch o'rimi

zunnor — but, sanam; xristian diniga mansub
bo'lganlarning beliga bog'ladigan chiviri,
belbog'i; zulf zunnori — ko'ch.
ma'shuqaning soch o'rimlari

Fardlar uchun lug‘at

xora — qattiq tosh
avvalg'i subh — subhi kozib, yolg'on tong
adu — dushman, yov
aybgo' — chaqimchi, yomonlovchi, birovning aybini yoyuvchi
aybjo' — ayb axtaruvchi; kamsituvchi
anduh — g'am, qayg'u
baxil — baxillik, qurumsoqlik
baxshoyish — kechirish, bag'ishlash, marhamat
biym — qo'rquv, qo'rqinch; xavf
voqif — xabardor, biluvchi
gazand — zarar, ziyon-zahmat, ofat
g'ariq — g'arq bo'lgan, cho'kkam
uqbo — oxirat, narigi dunyo
jig'oy — kambag'al, gadoy
zalil — xor, tuban
za'f — kuchsizlik, darmonsizlik, kasallik
ilik — qo'l
itmoq — yo'qolmoq
qut — yemak, oziq, ko'ch. Qut, qut-baraka, saodat
mehri munir — ravshan quyosh
muruvvat — odamgarchilik, saxiylik
oroyish — bezak, ziynat, pardoz
osoyish — tinchlik, orom, farog'at
ravshan zamir — yorug' ko'ngil
ranj — mashaqqat, qiynalish, og'riq, kasallik
ranjkash — dard chekuvchi
roz — sir, yashirin, maxfiv

sabz xatlar	— endi murti chiqqa boshlagan yoshlar
sabza	— maysa, yashillik, yashil rang
sadaf	— marvarid qobig'i
servi sihi	— qomati kelishgan, go'zal
saxiy	— qo'li ochiq, jo'mard
suubatdur	— qiyinchilik, qattiqchilik
taammul	— mulohaza yuritish, chuqur o'yash
uyoqti	— botdi, yo'q bo'ldi
uqubat	— qiynash, azob berish, jazo
filhol	— to'xtovsiz, darhol, shu onda
futuvvat	— oljanoblik, mardlik, saxovat
futur	— shikast, zarar; jarohatlilik, alamzadalik
havos	— hossaning ko'pligi, jami; (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, issiq, sovuqni his qilish va b.ni) his qilish qobiliyati, hislar
hamul	— o'sha, shu
hasud	— hasad qiluvchi, badxoh, yomon niyatli
xoliq o'lg'on	— yaratilgan, paydo qilingan
xurshidi raxshon	— porloq quyosh
chug'z	— boyqush, boyo'g'li
e'tidol o'lson	— tik bo'lmoq, to'g'ri bo'lmoq
g'animat	— biror sabab bilan qo'lga kirgan va qayta kirishi imkonsiz bo'lgan narsa yoki fursat

83.3



ISBN 978-9943-4142-4-2

9 789943 414242